

## MURDANI EKSGUMATSIYA QILISHGA OID JINOYAT-PROTSESSUAL NORMALARNING ESKI VA YANGI TAHRIRDAGI QIYOSIY TAHLILI

**Mamasoliyev Sanjar**

O'zbekiston Respublikasi Tashqi Ishlar Vazirligi  
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti  
“Xalqaro Huquq” fakulteti 2-bosqich talabasi.  
Jinoyat protsessual huquqi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20199077>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida murdani eks gumatsiya qilish, ya'ni jasadni qabrdan chiqarib tekshirish bilan bog'liq normalarning eski va yangi tahrirdagi farqlari qiyosiy tahlil qilinadi. Maqolada eks gumatsiya jarayonining protsessual ahamiyati, sud nazoratining kuchaytirilishi, prokuror va tergov organlari vakolatlarining o'zgarishi hamda marhumning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishga qaratilgan kafolatlar yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** Jinoyat-protsessual kodeksi, eks gumatsiya, sud nazorati, prokuror sanksiyasi, tergov harakati, inson sha'ni, qiyosiy tahlil.

### **Kirish**

Jinoyat ishlarini yuritishda haqiqatni aniqlash eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Ayrim holatlarda jinoyat ishi bo'yicha mavjud savollarga javob topish uchun marhum jasadini qayta ko'zdan kechirish yoki sud-tibbiy ekspertizadan o'tkazish zarurati tug'iladi. Ana shunday protsessual harakat murdani eks gumatsiya qilish deb yuritiladi.

Eks gumatsiya oddiy tergov harakati emas. U bir vaqtning o'zida huquqiy, axloqiy, diniy va ma'naviy jihatlariga ega bo'lgan juda nozik jarayondir. Shu sababli ushbu masala qonunda aniq, ehtiyotkor va kafolatlangan tartibda belgilanishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining mazkur yo'nalishdagi normalari so'nggi yillarda takomillashtirilib, eks gumatsiya qilish tartibi sud nazorati bilan bog'landi.



1-rasm. Eks gumatsiya qilish jarayoni

## Asosiy qism

### 1. Eski tahrirdagi tartibning mazmuni

Avvalgi tartibga ko'ra murdani eksqumatsiya qilish to'g'risidagi qaror surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan qabul qilingan. Biroq ushbu qarorni amalga oshirish uchun prokurorning sanksiyasi olinishi shart bo'lgan. Demak, bu bosqichda asosiy nazorat prokuratura organlari orqali ta'minlangan.

Eski tahrirda sudning ishtiroki cheklangan edi. Sud ayrim holatlarda topshiriq beruvchi yoki tasdiqlovchi sifatida qatnashishi mumkin bo'lgan, lekin eksqumatsiya qilish bo'yicha yakuniy nazorat doimiy ravishda sud vakolatiga kiritilmagan. Bu esa protsessual kafolatlar yetarli darajada kuchli emasligi haqida fikr yuritishga asos beradi.

### 2. Yangi tahrirdagi tartibning mazmuni

Yangi tahrirda eksqumatsiya qilish masalasi bevosita sud nazorati ostiga o'tkazildi.

Endilikda tergovchi yoki surishtiruvchi eksqumatsiya zarurligini asoslantirgan iltimosnoma tayyorlaydi va uni prokurorga yuboradi. Prokuror esa ushbu iltimosnomani qonuniylik va asoslilik nuqtai nazaridan tekshiradi. Agar iltimosnoma asosli deb topilsa, u sudga taqdim etiladi.

Sud eksqumatsiya qilish masalasini 48 soat ichida yopiq sud majlisida ko'rib chiqadi va yakuniy qarorni ajrim shaklida chiqaradi. Shunday qilib, yangi tartibda uch bosqichli protsessual mexanizm shakllandi: birinchi bosqichda tergovchi yoki surishtiruvchi iltimosnoma tayyorlaydi, ikkinchi bosqichda prokuror uni tekshiradi, uchinchi bosqichda esa sud yakuniy qaror qabul qiladi.

Bu o'zgarishning eng muhim jihati shundaki, endilikda murdani eksqumatsiya qilish faqat sud ajrimi asosida amalga oshiriladi. Bu holat inson huquqlarini, marhumning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish tamoyili bilan bevosita bog'liqdir. Chunki jasadni qabrdan chiqarish nafaqat protsessual, balki axloqiy va diniy jihatdan ham og'ir masala hisoblanadi.

### 3. Sud majlisida ishtirok etuvchi shaxslar va shikoyat qilish tartibi

Yangi tahrirda eksqumatsiya masalasi ko'rib chiqiladigan sud majlisida qatnashishi mumkin bo'lgan shaxslar doirasi aniq belgilandi. Bunday majlisda prokuror, tergovchi, surishtiruvchi, vafot etgan shaxsning yaqin qarindoshi, zarur hollarda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va himoyachi ishtirok etishi mumkin.

Sud majlisining yopiq tarzda o'tkazilishi marhumning sha'ni, uning oila a'zolari manfaatlari va shaxsiy hayot daxlsizligini saqlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, sud qarori ustidan apellyatsiya tartibida shikoyat qilish imkoniyati ham protsessual kafolat sifatida muhim ahamiyatga ega. Taraflar sudning eksqumatsiya qilish yoki uni rad etish haqidagi ajrimi ustidan 72 soat ichida yuqori sudga shikoyat berishlari mumkin.

### 4. Eski va yangi tahrirning qiyosiy jadvali

#### 1-jadval. Eksqumatsiya qilish normalarining eski va yangi tahrirdagi farqlari

KO'RIB CHIQLADIGAN JIHATLAR	ESKI TAHRIR	YANGI TAHRIR
Qaror chiqaruvchi organ	Surishtiruvchi yoki tergovchi qaror chiqarardi, prokuror sanksiya berardi.	Tergovchi yoki surishtiruvchi iltimosnoma tayyorlaydi, prokuror tekshiradi, sud yakuniy

		qaror qabul qiladi.
<b>Nazorat shakli</b>	Asosiy nazorat prokuror sanksiyasi orqali amalga oshirilgan.	Sud nazorati joriy etilgan, ekskumatsiya sud ajrimi bilan amalga oshiriladi.
<b>Jarayon bosqichlari</b>	Ikki bosqich: tergovchi yoki surishtiruvchi qarori va prokuror sanksiyasi.	Uch bosqich: iltimosnoma, prokuror tekshiruv va sud ajrimi.
<b>Sud ishtiroki</b>	Cheklangan, ayrim hollarda ishtirok etgan.	Majburiy, yakuniy qarorni sud qabul qiladi.
<b>Shikoyat qilish huquqi</b>	Aniq protsessual tartib keng ko'rsatilmagan.	72 soat ichida apellyatsiya tartibida shikoyat qilish imkoniyati mavjud.
<b>Sud majlisi</b>	Alohida sud majlisi o'tkazilishi majburiy bo'lmagan.	Masala yopiq sud majlisida ko'rib chiqiladi; zarur shaxslar ishtiroki ta'minlanadi.

### 5. Amaliyotdagi ahamiyati

O'zbekistonda murdani ekskumatsiya qilish amaliyoti keng tarqalgan tergov harakati emas.

Bunga sabab, bir tomondan, ushbu jarayonning diniy va axloqiy jihatdan og'irligi bo'lsa, ikkinchi tomondan, uni qo'llash uchun yetarli protsessual asos bo'lishi kerakligidir. Shunga qaramay, ayrim holatlarda ekskumatsiya jinoyat ishi bo'yicha haqiqatni aniqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Masalan, ochiq manbalarda Buxoro viloyatida o'qituvchi ayolning o'limidan keyin qo'shimcha sud-tibbiy ekspertiza o'tkazish uchun jasad ekskumatsiya qilingani haqida ma'lumotlar uchraydi. Bunday holatlar shuni ko'rsatadiki, ekskumatsiya ayrim jinoyat ishlarida avvalgi ekspertiza xulosalarini qayta tekshirish, o'lim sababini aniqlashtirish yoki tergovdagi shubhali jihatlarni bartaraf etish uchun zarur bo'lishi mumkin.

Shuningdek, jamoatchilik e'tiborida bo'lgan ayrim ishlar, jumladan, bolalar o'limi bilan bog'liq holatlarda ham ekskumatsiya masalasi muhokama qilingan. Bunday vaziyatlar ekskumatsiya institutining amaliy jihatdan kam qo'llanilsa-da, jinoyat-protsessual huquqda muhim kafolat va haqiqatni aniqlash vositasi ekanligini ko'rsatadi.

### Xulosa

Xulosa qilib aytganda, murdani ekskumatsiya qilish tartibining sud nazorati ostiga o'tkazilishi jinoyat-protsessual qonunchilikdagi ijobiy va muhim o'zgarishlardan biridir. Eski tahrirda asosiy nazorat prokuror sanksiyasi orqali amalga oshirilgan bo'lsa, yangi tahrirda yakuniy qaror sud tomonidan qabul qilinadi. Bu esa qonuniylik, shaffoflik va protsessual kafolatlarining kuchayishiga xizmat qiladi.

Menimcha, mazkur o'zgarish tergov organlarining ishini biroz murakkablashtirishi mumkin, chunki endilikda har bir ekskumatsiya bo'yicha sudga murojaat qilish zarur. Lekin inson sha'ni, qadr-qimmat, marhumning yaqinlari manfaatlari va diniy-axloqiy qadriyatlarga hurmat nuqtai nazaridan bu tartib to'g'ri va adolatli hisoblanadi.

Davlat inson huquqlarini nafaqat tiriklik davrida, balki vafotidan keyin ham hurmat qilishi zarur. Shu ma'noda, eksqumatsiya qilish jarayonining sud nazorati ostida amalga oshirilishi huquqiy davlat tamoyillariga mos keladi.

**Foydalanilgan manbalar**

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi.
2. JPKning murdani eksqumatsiya qilishga oid 148-modda, 148<sup>1</sup>-modda va 148<sup>2</sup>-modda normalari.
3. Sud-tergov amaliyotiga oid ochiq manbalarda e'lon qilingan materiallar.
4. Inson huquqlari, sha'n va qadr-qimmatni himoya qilishga oid umumiy protsessual tamoyillar.